

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA TA'LIMINING MAZMUNI VA
KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV SAMARADORLIGI**

Matkarimov Abdurahim Muhammadjonovich

NamDPI Intellektual fanlar va axborot texnologiyalari kafedراسi mudiri dots.

E-mail: matkarimovabdurahim82@gmail.com

Rahmataliyeva Sohiba Hoshim qizi

NamDPI Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich magistri

E-mail: sokhiba98@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19828761>

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limining mazmuni, uning tarkibiy qismlari va o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni keng tahlil qilinadi. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari hamda uni texnologiya ta'limida qo'llashning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqot davomida an'anaviy va kompetensiyaviy yondashuv asosidagi darslar taqqoslanib, ularning natijalari umumlashtirildi. Olingan natijalar kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va amaliy faoliyatini sezilarli darajada rivojlantirishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: texnologiya ta'limi, boshlang'ich sinf, kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, amaliy ko'nikma, ijodiy faoliyat, ta'lim samaradorligi.

Аннотация: в данной статье подробно анализируются содержание технологического образования в начальных классах, его структурные компоненты и роль в формировании практических навыков учащихся. Также научно обоснованы теоретические основы компетентностного подхода и эффективность его применения в процессе обучения технологии. В ходе исследования были сопоставлены уроки, проведённые на основе традиционного и компетентностного подходов, а их результаты обобщены. Полученные результаты показали, что компетентностный подход способствует значительному развитию самостоятельного мышления, творческих способностей и практической деятельности учащихся.

Ключевые слова: технологическое образование, начальная школа, компетенция, компетентностный подход, практические навыки, творческая деятельность, эффективность обучения.

Abstract: this article provides a comprehensive analysis of the content of technology education in primary grades, its structural components, and its role in developing students' practical skills. It also substantiates the theoretical foundations of the competency-based approach and its effectiveness in teaching technology. During the study, lessons based on traditional and competency-based approaches were compared, and their results were generalized. The findings indicate that the competency-based approach significantly enhances students' independent thinking, creativity, and practical activity.

Keywords: technology education, primary school, competence, competency-based approach, practical skills, creative activity, educational effectiveness.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning bilim bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi muhim talab sifatida qaralmoqda. Ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy talab — raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan shaxsni shakllantirishdan iborat. Shu nuqtai nazardan boshlang'ich ta'lim bosqichi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu davrda o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan munosabati, mehnat madaniyati va ijodiy salohiyati shakllanadi. Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limi aynan shu vazifani bajaruvchi muhim fanlardan biri hisoblanadi. Ushbu fan orqali o'quvchilar mehnat faoliyatining boshlang'ich asoslarini o'zlashtiradi, turli materiallar bilan ishlashni o'rganadi va ijodiy fikrlashga yo'naltiriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqotchilardan D.M.Tashpulatova[2] bo'lajak pedagog kadrlarning "Texnologiya" o'quv fani asoslarini oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'zlashtirishi bilan nazariy bilimga ega bo'lishlarini ilmiy asoslagan. I.B.Raximova[3] kompetensiyaviy yondashuv tushunchasi va boshlang'ich sinf texnologiya darslaridagi ahamiyatini izohlab bergan. Sh.B.Turapkulova[4] talabalarni boshlang'ich sinflarda "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" fanining mazmuni va vazifalari, o'qitish usullari, ta'limiy vositalar bilan tanishtirish va ularni ta'lim jarayoniga tadbqiq etish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish yuzasidan ilmiy ish olib brogan. M.Axmedova[5] texnologiya ta'limi metodikasi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishini bajargan. D.Xodjayeva[6] boshlang'ich ta'limda

texnologiya fanini o'qitish usullarining ilmiy-nazariy asoslarini o'rgangan. Biz tadqiqot jarayonida quyidagi usullardan foydalandik:

- pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish;
- boshlang'ich sinflarda texnologiya darslarini kuzatish;
- taqqoslash (an'anaviy va kompetensiyaviy yondashuv asosidagi darslar);
- umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari.

Shuningdek, texnologiya faniga oid o'quv dasturlari va darsliklar o'rganilib, ularning mazmuni kompetensiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologik asosini pedagogika, didaktika va zamonaviy ta'lim nazariyalari tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy usullar qo'llanildi: Nazariy tahlil pedagogik va metodik adabiyotlar, ilmiy maqolalar hamda o'quv dasturlari o'rganildi. Texnologiya ta'limining mazmuni va kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari tahlil qilindi. Taqqoslash metodi an'anaviy ta'lim yondashuvi bilan kompetensiyaviy yondashuv asosidagi darslar solishtirildi. Bu orqali har ikki yondashuvning afzallik va kamchiliklari aniqlashtirildi.

Kuzatuv boshlang'ich sinflarda olib borilgan texnologiya darslari kuzatildi. O'quvchilarning darsdagi faolligi, mustaqilligi va ijodiy yondashuvi baholandi.

Umumlashtirish va tizimlashtirish olingan natijalar umumlashtirilib, tizimli xulosalar chiqarildi.

Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning faoliyatini baholashda quyidagi mezonlar asos qilib olindi:



1-rasm. O'quvchilarning faoliyatini baholash mezonlari.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida texnologiya darslari o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, qo'l mehnati malakalari va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bu jarayonning samaradorligi ko'p jihatdan baholash tizimiga bog'liqdir. Chunki baholash o'quvchining bilim darajasi va faoliyatini aniqlash bilan birga, unga o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholash, mustaqil ishlash, mehnatga mas'uliyatli yondashish ko'nikmalarini hosil qiladi[7,65-bet].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limining mazmuni quyidagi asosiy yo'nalishlardan iborat ekanligini ko'rsatdi: mehnat faoliyatining boshlang'ich ko'nikmalarini shakllantirish; turli materiallar (qog'oz, karton, mato, tabiiy materiallar) bilan ishlash; oddiy buyumlar yasash va loyihalash; texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda quyidagi ijobiy natijalar kuzatildi:

- o'quvchilarning darsdagi faolligi oshdi;
- mustaqil ishlash ko'nikmalari rivojlandi;
- ijodiy yondashuv va tashabbuskorlik kuchaydi;
- o'quvchilar bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo'llay boshladi.

Shuningdek, o'quvchilarda quyidagi asosiy kompetensiyalar shakllandi:



2-rasm. O'quvchilarda shakllangan kompetensiyalar.

Tadqiqot natijalari boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limining mazmuni kompleks va ko'p qirrali ekanligini ko'rsatdi. Ushbu mazmun quyidagi asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi:

1. Amaliy faoliyat asoslari - o'quvchilar turli materiallar bilan ishlash orqali mehnat ko'nikmalarini egallaydi. Bu jarayonda qog'oz, karton, mato, yog'och va tabiiy materiallardan foydalaniladi.

2. Loyihaviy faoliyat - texnologiya ta'limida o'quvchilar oddiy loyihalar ustida ishlaydi. Bu esa ularda rejalashtirish, bosqichma-bosqich ishlash va natijani baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

3. Texnika xavfsizligi - o'quvchilarga mehnat jarayonida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish o'rgatiladi. Bu esa ularning mas'uliyatini oshiradi. 4. Ijodiy rivojlanish - buyum yasash jarayonida o'quvchilar o'z fantaziyasini ishga soladi. Bu esa ijodiy fikrlashni rivojlantiradi[8].

Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning darsga qiziqishi oshdi, ular mustaqil ishlashga intila boshladi, topshiriqlarni bajarishda ijodiy yondashuv kuchaydi, guruh bilan ishlash samaradorligi oshdi. An'anaviy yondashuvda o'quvchilar ko'proq tayyor bilimlarni o'zlashtirsa, kompetensiyaviy yondashuvda ular faol ishtirokchi sifatida shakllanadi. Bunday yondashuv o'quvchilarni real hayotga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, texnologiya darslarida amaliy topshiriqlar, loyihaviy ishlar va muammoli vaziyatlardan foydalanish o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi.

XULOSA

Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limi o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Kompetensiyaviy yondashuv esa ushbu jarayonni yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari asosida shuni xulosa qilish mumkinki, texnologiya ta'limini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish o'quvchilarning mustaqilligi, ijodkorligi va amaliy faoliyatini rivojlantiradi. Shu sababli, kelgusida ushbu yondashuvni keng joriy etish maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limi o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Kompetensiyaviy yondashuv esa ushbu jarayonni yangi bosqichga olib chiqadi. Tadqiqot natijalari texnologiya ta'limi o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishni, kompetensiyaviy yondashuv ta'lim samaradorligini oshirishi, o'quvchilarning mustaqilligi va ijodkorligi rivojlanishini asoslab berdi. Kelgusida texnologiya ta'limini yanada takomillashtirish uchun innovatsion metodlarni keng qo'llash va kompetensiyaviy yondashuvni chuqurlashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni.// www.ziyanet.uz
2. Tashpulatova D.M. Boshlang'ich ta'limda "Texnologiya" fanini o'qitishda kompetension yondashuvlar, Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 3 | 2023, 155-158-bet.
3. Raximova I.B. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuv, Buxoro-2025, 20-b.



4. Turapkulova Sh.B. boshlang'ich sinf texnologiya darslariga kompetensiyalar yondashuv, <https://zenodo.org/records/7529541>
5. Axmedova M. Texnologiya ta'limi metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
6. Xodjayeva D. Boshlang'ich ta'limda texnologiya fanini o'qitish usullari. – Samarqand, 2020.
7. Madaminova Y.S. Boshlang'ich sinflarda texnologiya darslarida baholashning ahamiyati, International scientific and practical conference on “The theoretical and practical approaches to the assessment of knowledge and qualifications”, october 14-15, 2025, 65-b.